

---

## HOKIM YORDAMCHISINING SAY-HARAKATI BILAN...

📌 Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda mehnat migranti sifatida faoliyat olib borayotgan fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish orqali ularni sharoitlarini o'rganish, oilasiga qaytarish choralarini ko'rish hamda bandligini ta'minlashga ko'maklashish masalalariga katta e'tibor qatrilmoqda.

□ "Yoyilma" mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Mavluda G'ofurova ham xorij davlatlariga ishlash maqsadida jo'nab ketgan fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'ydi.

📌 Hokim yordamchisining sa'yi harakati bilan ushbu mahallada yashovchi fuqaro Shukurullo Turdiboev tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib o'z oilasi bag'rida daromad manbaiga ega bo'ldi. Ayni damda uning sartaoshxonasida mijozlar gavjum.

???? – Menga yaratib berilgan shunday keng imkoniyatlar uchun barchaga ma'sullarga, yurtboshimizga, viloyat va tuman hokimiga, qolaversa, tinib-tinchimas mahallamizning hokim yordamchisiga cheksiz minnatdorchiligimni bildiraman, – deydi sevinch ko'z yoshlari bilan Shukurullo Turdiboev.

📌 Bu ezgu tadbirlar Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning bir ko'rinishi, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlarning samarasi demakdir.

### **Rishton tumani hokimligi axborot xizmati**

2022-08-25 06:55:20